

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari	444
I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish	448
M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi	455
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova	
The structure of speech acts in various types of discourse	462
X.M.Sotvaldieva	
Paremiologiya fan sifatida	467
A.E.Botirova	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar.....	473
R.Radjabov	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar	478
M.N.Raxmanova	
Texnik oliy ta'lif muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari.....	482
U.B.Almaz, O.X.Barziyev	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar.....	486
D.Sh.Islomov	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida	493
M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lif yo'nalishi misolida).....	498
G.A.Saydaliyeva	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
G.N.Isakova	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
J.J.Egamberdiyev	
Lug'at zamon va davr elchisi.....	511
Sh.Sh.Zarmasov	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili.....	515
G.P.Nazarova, F.B.Alimova	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazionalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
S.A.Mannonova	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari	526
N.K.Ergasheva	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context	529
A.K.Usmonov	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari	533
N.K.Abbasova	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms	538
D.G.O'rinoiboyeva	
Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar	542
N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашуро娃	
Когнитивный подход к анализу художественного текста	550

**УО'К: 811.111.81.25.811.161.1(075.8)****PAREMIOLOGIYA FAN SIFATIDA****PAREMIOLOGY AS A SCIENCE****ПАРЕМИОЛОГИЯ КАК НАУКА****Sotvaldieva Xilola Musinovna**

Gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasi mudiri

Annotatsiya

Ushbu maqolada maqollar va matallarni o'rganuvchi soha, ya'ni paremiologiyaning kelib chiqish tarixi, turli davrlarda ishlatalishi haqida gapirilgan. Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o'rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya – yunoncha “chuqur ma'noli gap, hikmatli so'z, ibora, maqol, matal” ma'nosini beradi. Paremiya barqarorlik hodisasi bo'lib, bir butun mazmunni, semantik butunlikni anglatadi.

Paremiologiya koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etnik va estetik tuyg'ulari, ijobjiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan-avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmunli mantiqiy umumlashmada paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli so'zlarni - paremalarni o'rganadi.

Abstract

This article discusses the paremiology, its history and usage in different times. Scientists study the field of Proverbs and sayings called paremiology. Paremia is a Greek word for " deep meaning sentence, phrase, proverb, saying". Paremia is a phenomenon of stability, and implies a whole content, a semantic whole means.

Paremiology is an observation of the laws of the universe, life representing conclusions drawn based on reliance on his experiments, people's attitude to society, state of mind, ethnic and aesthetic feelings, embodied positive qualities, oral speech moving in shape from generation to generation, compact and simple, short and meaningful logic proverb, saying, aphorism which appeared in the generalization.

Аннотация

В этой статье рассматривается паремиология, ее история и использование в разные времена. Ученые изучают область пословиц и поговорок, называемую паремиологией. Паремия - греческое слово, означающее "предложение с глубоким смыслом, фраза, пословица, изречение". Паремия - это феномен устойчивости, подразумевающий целостное содержание, смысловое целое средства.

Паремиология - это наблюдение законов Вселенной, жизни, представляющее выводы, сделанные на основе опоры на его эксперименты, отношение людей к обществу, душевное состояние, этнические и эстетические чувства, воплощенные положительные качества, устная речь, переходящая по форме из поколения в поколение, компактная и простая, короткая и содержательная логическая пословица, высказывание, афоризм, появившийся в обобщении.

Kalit so'zlar: parema, maqol, matal, folklor, frazeologiya, aforizm, ingvodidaktika, antropotsentrism, lingvistik, til, fan.

Key words: parema, proverb, saying, folklore, phraseology, aforism, lingvodidactics, antroposentrism, lingistics, language, science.

Ключевые слова: парема, пословица, поговорки, фольклор, фразеология, афоризм, лингводидактика, антропоцентризм, лингвистика, язык, наука.

KIRISH

Olimlarning aniqlashicha, har bir kishi tilimizdagi 800 ga yaqin maqol, matal yoki aforizm haqida tushunchaga ega. Lekin tilning paremiologik boyligi bir necha o'n minglab paremalarni o'z ichiga oladi.

Keyingi yillarda jahon, rus va o'zbek tilshunosligida hamda lingvodidaktikasida paremiologik lug'at, paremiologik o'quv-lug'atlari tuzishga katta e'tibor berilmoqda.

Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o'rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya – yunoncha "chuqr ma'noli gap, hikmatli so'z, ibora, maqol, matal" ma'nosini beradi. Paremiya barqarorlik hodisasi bo'lib, bir butun mazmunni, semantik butunlikni anglatadi.

Avvalo, parema va paremiologiyaning tarixiga nazar tashlasak, O.V.Lisina berayotgan ma'lumotga ko'ra, paremiologiya XII asrda yuzaga kelgan va o'rganila boshlagan. Grekcha paroimiya - «hikmatli so'z, zarbulmasal» ma'nosini anglatib, o'sha paytlarda cherkovlarda bo'lib o'tadigan bayramlarda o'z ma'nosiga ko'ra ishlatilgan. Parema aytuvchilar alohida hurmatga sazovor shaxslar edi, ular maxsus taklif bilan boy xonadonlarga va cherkovlarga borib, bayramlarda hikmatli so'zlar

aytganlar. Shuning uchun ham xalq paremiyalari yig'ilgan kitob «paremeynik» deb atalgan. Paremeyniklardan uyda foydalanilmagan.

ADABIYOTLAR TAXLILI

V.I.Dal paremiyani «o'qimishlilar so'zi» deb ataydi va parema o'qiladigan kechada o'qimishli, ziyolilar ishtirok etishini keltirib o'tadi. Paremalar ko'proq pand-nasihat ruhida yozilgan. Qadimda cherkovlarda ishlatiluvchi parema so'zi 1970-yildan boshlab tilshunoslikka «paremiologiya» termini sifatida kirib keldi [1, 33].

G.L.Permyakova parema va paremiologiyani Sharq xalqlarining hikmatli so'zi deb ataydi va folklorizmi bilan birga vujudga kelganini, bu termin didaktika bilan bir ma'no kasb etishini aytadi [2,320]. T.L.Evgenyevna esa paremani maqolga qarshi qo'yadi va ibora bilan maqolning o'rtasi parema deb ko'rsatadi. Tilshunos o'z ishida paremalarning rus tilidagi modellarini tuzib chiqqan [3, 45-49].

Paremagaga taalluqli o'zbek tilshunoslarining ishlariga nazar tashlasak, X.Berdiyorov va R.Rasulovning «O'zbek tilining paremiologik lug'ati»ni tuzganligi, Sh.Rahmatullaevning o'zbek frazeologiyasi, O.Madaevning o'zbek adabiyotini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasini ta'kidlamay iloji yo'q. O'zbek tilshunosligida paremalarni to'plash, o'rganish Mahmud Koshg'ariy («Devonu lug'ati turk») va Gulxaniy («Zarbulmasal») zamonlaridan hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

Paremiologiya koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etnik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan-avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmunli mantiqiy umumlashmada paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli so'zlarni - paremalarni o'rganadi.

Paremiylarda insoniyat tafakkuri va xulq-atvori o'z ifodasini topadi. Shuning uchun paremiyalar keyingi yillarda vujudga kelgan antropotsentrik paradigmanning tadqiqot obyekti deb olingan.

Antropotsentrism lingvistikada quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

- 1) shaxs faktorlarining tilda namoyon bo'lishi;
- 2) tilning shaxs tafakkuri va fe'l-atvoriga ta'siri;
- 3) til va jamiyatning o'zaro ta'siri;
- 4) til va xalq ruhiyatining o'zaro ta'siri;
- 5) milliy mentalitet va xalq ijodining bog'liqligi.

Paremiya frazeologik qatlarning eng boy va juda ekspressiv namunasi hisoblanadi. Chunki paremiyalar faqatgina maqol yoki ibora hisoblanib qolmasdan, ular o'zida ko'chma ma'no bilan birgalikda xalq, millat madaniyatini aks ettiradi. Demak, paremiyalar nafaqat til mahsuli, balki xalq va butun bir millatning madaniy boyligining tildagi go'zal aksidir.

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- * Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan;
- * Maqollar mazmunan serko'lam va chuqr ma'noni ifodalaydi;
- * Xalq maqollar shaklan she'riy va nasriy bo'ladi. Ammo nasriy maqollar ham she'riy misralarni eslatadi. Masalan: Ko'za kunda emas,kunida sinadi;
- * Maqollarda hayotiy voqe-a-hodisa haqida qat'iy hukm ifolanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi;
- * Maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtayi nazardan umumlashtiradi;

TILSHUNOSLIK

* Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodidagi maqollar janri tarixiy hayot davomida son va mazmun jihatdan boyish xususiyatiga ega. Ya'ni maqollar zamon o'tishi bilan iste'moldan chiqishi va ayni paytda yangi-yangi namunalari vujudga kelishi mumkin.

Maqollarning iste'moldan chiqishida quyidagi omillar sabab bo'ladi:

* Tarixiy hayotning o'zgarishi. Ijtimoiy hayotda maqolni qo'llash ehtiyojining yo'qolishi oqibatida maqol xalq esidan chiqadi;

* Tarixiy so'zlar ishtirokidagi maqollar vaqt o'tishi bilan yo'qoladi;

* Ayrim maqollar og'zaki ijodning og'zakiligi belgisi ta'sirida yo'qolishi ham mumkin. Bir avlod qo'llamagan maqol o'limga mahkum;

* Ba'zan maqolning bir qismi yashaydi, ikkinchisi yo'qoladi.

Yuqoridagi sabablar maqolning yo'qolishiga olib keladi. Ayni paytda maqollarimiz namunalarining boyish manbalari ham yo'q emas.

Ular quyidagilardan iborat:

1) Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida yangi maqollar vujudga keladi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng "Vatanni sevmoq iymondandir" hikmatli so'zini qo'llash ommalashdi. Bu maqolsifat jumla Abdulla Avloniy yozgan "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida Muhammad Payg'ambarning hadisidir. Ammo bu hikmatli so'z xalqimiz orasida ko'p qo'llanmagan. Mustaqillikdan so'ng eng ommaviy maqolga aylanib ketdi.

2) Xalq maqollarining yangi-yangi namunalar xalqlar o'rtaisdagi iqtisodiy, ijtimoiy aloqalarning rivojlanishi natijasida paydo bo'ldi. "Olma og'ochidan olisga tushmas" maqoli "Yablonko ot yabloni daleko ne padaet"ning tarjimasi. Bugungi kunda bu maqolning kelib chiqishi hech kimni deyarli qiziqtirmaydi;

3) Yangi maqollarning paydo bo'lishi allomalar, dono adiblar aytgan hikmatli so'zlar bilan bog'liq bo'ladi. Tarixda biz Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy ijodi bilan tanishar ekanmiz, aforizm deb atalmish muallifi aniq dono va hikmatli so'zlarga duch kelamiz. "Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur" kabi misollar shular jumlasidandir.

METODLAR

Xalq maqollari shakl va mazmun jihatdan matallarga yaqin janr hisoblanadi. Matallar ham ixcham matnga ega ekanligi bilan maqolga o'xshaydi. Matal, odatda, notiq nutqi tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo mustaqil qo'llanganda tugal fikr anglatmaydi. Masalan, xalqimizda "Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar" degan maqol bor. Agar maqolning yarim matnini "Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi" tarzida qo'llasak, biz matal aytgan bo'lamiz va "Falonchi yaxshi gapirdi" ma'nosini bildiramiz. Chunki "ilon inidan chiqadigan" so'z birikmasi alohida aytilsa, mustaqil ma'no anglatmaydi. Ma'lum bo'ladiki, matal shaxs nutqini go'zallashtirish uchun xizmat qilar ekan, xolos. Maqol esa mataldan mustaqil ma'no ifodalay olish xususiyati bilan farqlanadi.

Shunday qilib, til taddiqining hozirgi bosqichida ko'pgina olimlar maqol, matal va aforizmlarni o'rganuvchi paremiologiyani tilshunoslikning alohida bir mustaqil sohasi sifatida e'tirof etishmoqda. Maqollar hali yozuv paydo bo'lmasdan oldin xalq og'zaki ijodiga muhrlangan va jamiyat ongingin bir qismiga aylangan. Yozuv paydo bo'lgandan so'ngina, u madaniy yodgorliklarda o'z aksini topa boshlagan. Shunday maqollarning ba'zilari tarixiy rivojlanish jarayonida o'zlarining kelib chiqqan manbalari haqidagi ma'lumotlarni yo'qotgan, ba'zilari esa xalq og'zaki ijodining namunasi hisoblangan va mualliflari noma'lum edi. Eng qadimgi maqollar namunasi Yevropada Aristotelga tegishli bo'lib (er.avv IV- III asrlar), ular antik davrdagi shoir va faylasuflarning hikmatli iboralari edi. Shuningdek, "Ptaxotep konunlari" nomli qadimgi misr pand nasihatlar (maksima) to'plami (er. avv. XXV asr) [1, 9], faylasufona g'oyalarni ifoda etuvchi va axloq-odob normalariga bag'ishlangan qadimgi Hind va Xitoydag'i to'plamlar ma'lum va mashhurdir.

X-XI asrlarda Angliyada diniy qarashlarni rivojlanishi natijasida didaktik asarlarga bo'lgan ehtiyojni oshirib bordi va bu davrda bir qancha pand nasihat mazmunidagi asarlar vujudga keldi. Shunday asarlardan biri, eng qadimgi ingliz maqol matallarining yozma to'plami hisoblangan "Proverbs of Alfred" edi [2, 912]. U 1150 - 80 yillarda yozilgan va u o'zida diniy, odob- axloqqa doir yo'l yo'riq va ko'rsatmalarni mujassamlashtirgan. Yuqorida ko'rsatilgan to'plam va "The book of proverb" to'plami oldinroq paydo bo'lgan "Proverbs of Solomon which the raven of Hezekiah king

of Judah copied"(ap.aBB 700 yillar), "Wisdom of Amenemope" (er. avv.X-VI asrlar) asarlari asosida paydo bo'lgan [3, 749].

Angliyada maqol va adabiyotga bo'lgan qiziqish o'rta ingliz davrida (XVIXVII asrlar) ya'ni "maqol tarzidagi hikmatli iboralarning oltin davri"da yanada ortdi [4, 113]. Turli xil yozuvlarning shevalardan foydalanib kelayotgan ingliz jamiyatni bu davrga kelib, kitob bosish sirini bilib oldi. Ko'p yillar mobaynida jamlanib kelgan donishmandlik rasmiy ravishda pand nasihat maqomini oldi va xalq boshqaruvining didaktik quroliga aylandi, maqollar esa adabiy janr sifatida tan olindi va turli asarlarda o'z aksini topa boshladi. Ko'proq bu davrda maqollardan cherkov xodimlari foydalanar edi. Ular maqollardan foydalanishni ma'qullabgina qolmasdan, balki o'zlar ham Bibliya va "faylasuflarning maqollar to'plami"-dan olingan sitatalardan muntazam ravishda ibodat paytida foydalanishar edilar. XIII-XV asrlarda maqollar targ'ibot paytida beg'am, beparvo katoliklarni qo'rqtish vositasi bo'lib hizmat qilgan va ular odatda barcha uchun tushunarli bo'lgan oddiy xalq tilida jaranglardi. Masalan: "*Don't cast your pearls before swine*"- axmoqqa gap uqtirmoq eshakning qulog'iga tanbur chertmoq; "*A house divided against itself can't stand*"- *Bo'linganni ayiq ep, ayrilganni bo'ri ep* [5, 8-11]. Keyinroq bunday hikmatli iboralarni yig'ib, to'plam sifatida chop etishga qaror qilindi. Maqollarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ularni turli maqsadlar yo'lida keng ko'lamda foydalanish ularni ilmiy jihatdan o'rganishni talab qilar edi. Maqollarni qisqa va lo'ndaligi, yodlab qolish uchun osonligi va boshqalarga ta'sir o'tkaza olganligi uchun olimlar va notiqdar o'zlarining chiqishlarida ulardan unumli foydalanishar edilar. Ushbu davrda Angliyada maqollarni o'rganishda aniq bir maqsadga yo'naltirilgan ilmiy o'rganish yo'qligi sababli, olimlar ularni sonini va ularni kelib chiqish manbalarini aniqlash bilangina chegaralanishardi. XV-XVI asrga kelib Angliyada 12000 yaqin maqol va maqol tarzidagi iboralar bor edi va ular muntazam ravishda xalq tarafidan og'zaki va yozma nutqda qo'llanar edi. XV asrga kelib Angliyada mavjud hikmatli iboralardan to'plam yaratish an'anasi mavjud bo'lib, ular hattoki lotin tilidagi tarjimasi bilan berilar edi. O'sha davrning diqqatga sazovor to'plamlaridan biri Erasmusning "Matallar" nomli ishi hisoblanadi. U o'z ichiga lotin va grek mualiflarining 4251 ta hikmatli iboralarini olgan bo'lib, 1500-1536-yillar mobaynida bir necha bor chop etilgan. Undan so'ng Angliyada hikmatli iboralarni o'z ichiga olgan bir qancha to'plamlar paydo bo'ldi. Ular kompilyativ xarakterga ega bo'lib, undagi maqol va matallar Erasmusning ishlaridan olingan. Erasmusning ishlarini o'z ichiga olgan qiziqarli to'plamlardan biri Tomas Barletrning "Dicta Spientum"(1527) to'plami xisoblanadi. Bu davrga kelib, Erasmusning ishlari asosida paydo bo'lgan to'plamlar anchaginani tashkil etar edi. Jumladan, Richard Taverner(1539), Nikolas Udal(1540), Uilyam Baldavining "Axloqiy falsafaning traktati" (1747), Bartolomeo Robertson (1621), Jon Klarkning "Paremiologia Anglo-Eaypa" nomli to'plami Erasmusning ishlari asosida paydo bo'lgan. Bu davrgacha bo'lgan barcha to'plamlar nafaqat maqol, matallarni iborat bo'libgina qolmay, balki o'z ichiga qadimgi mutafakkirlarning mulahazalarini (aforizmlar), Bibliyadan olingan sitatalarni ham olardi. Bu davrga kelib, ingliz maqollarini to'plash ma'lum tartibga tushib qolgan edi. Shunday to'plamlar sirasiga Jon Xeyvudning "The dialogue of proverbs"(1546) kiradi. Ushbu to'plamga 1267 maqol va maqolsimon iboralar kirdi. 1659-yil Jeyms Xouell "Paroimiografia, Proverbs or Sayed Saws" nomli maqollar to'plamini nashr ettirdi [6, 7]. Keyinchalik 1670-yilda Jon Rey "A collection of English proverbs", 1855-yil Bonning "Maqollar kitobi", 1870-yilda Xatslittaning "Ingliz maqol va maqolsimon iboralar" nomli to'plamlari chiqdi [7, 13]. XX asrga kelib paremiologik birliklarni nazariy jihatdan o'rganish boshlandi, ular ustida lingvistik tadqiqotlar olib borila boshladi, ya'ni olimlar paremiologik birliklarni bibliografik to'plamlar yaratish, yangi materiallar yig'ish va uni oldingisi bilan solishtirish, ularni strukturasi, paydo bo'lish tarixi, evolyutsiyasi va ularni xalq mentaliteti bilan bog'liqlik taraflarini o'rgana boshladi (A.Taylor, M. Wolfgang, G. Milner, A.Krappe). XX asr oxirlariga kelib paremiologik birliklarni o'rganish yanada kuchaydi va hozirga kelib ko'plab mukammal ingliz maqol va matallar to'plami mavjud. Masalan, S.Burton (1948), U. Smit (1970) va V.Kollinzlarning (1974) lug'atlari shular jumlasidandir.

NATIJA

O.Madaevning ma'lumotiga qaraganida, bu jihatdan qaraganda, o'zbek folklorshunosligidagi dastlabki harakat XI asrga taalluqlidir.

XI asrda Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'oti-t-turk" asariga (1074) maqollar, qo'shiqlar, rivoyat, afsona va boshqa janrga mansub namunalarni kiritdi. Hech ikkilanmay aytish mumkinki,

TILSHUNOSLIK

dala sharoitida olim yozib olgan ijod durdonalarida bevosita bizning ajdodlarimiz ham ishtirok etgan. Mahmud Koshg'ariy otalar so'zini eslamoq ma'nosida, avvalroq aytganimizdek, "sav" atamasini keltiradi. Keyinchalik Alisher Navoiy maqoldan misol keltiradi va "masal" atamasidan foydalanadi.

Filologiya fanlari doktori, professor X.G.Ko'r-o'g'li Safaviylar davri (XV-XVI asr)da turkiy maqollar to'plangani, ammo bu majmuuning yo'qolgani haqida ma'lumot bergan. O'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plam tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi.

Masalan, venger olimi Xyu Vamberning 1867-yilda Leyptsigda nashr etilgan "Chig'atoy tili darsligi" xrestomatiya-lug'atida o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatoriga 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham keltirilgan.

O'zbek tilidagi hikmatli so'zlar to'plamini 1923-yilda "O'zbekcha otalar so'zi" (to'plovchi va tuzuvchi Mullo Bekjon Rahmon o'g'li) deb nomlashgan bo'lsalar, 1926-yilda "O'zbek maqollari" (to'plovchi va tuzuvchi Sherali Ro'zi) deb atashdi. Shu paytdan "maqol" atamasini janr sifatida keng o'rinn oldi, deyish mumkin. Shundan keyin B.Karimov, Sh.Rizo,O'.Azimov, O'.Xolmatov, H.Zarif, M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov, R.Jumaniyozov, M.Ahmadboeva, E.Siddiqov, T.Mirzaev,K.Imomov, G'.Jahongirov, S.Qosimov, Z.Husainova, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Jo'raev kabi o'nlab olim va ziyolilar xalq maqollarini to'plash va o'rganishda faol ishtirok etdilar. Ayniqsa, 1987, 1988-yillarda ikki jiddan iborat "O'zbek xalq maqollari" kitoblarining nashr ettirilishini bu sohadagi alohida voqeа sifatida ta'kidlash mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida, shuni ta'kidlash lozimki, asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib kelgan maqollar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, axloqiy normasi, tarixni va ruhiy holatni ifodalaydi. Ular o'zining tuzilishi jihatidan qisqa, lo'nda, puxta mantiqli, fikran tugallanmagan va siqiq ishlangan bo'ladi. Maqollar kishining ongini o'stiradi, ularni to'g'ri, rostgo'y, mehnatsevar, mard, sabotli va matonatli bo'lishga o'rgatadi, kishidagi yaxshi insoniylarini targ'ib etadi. Fikrni qisqa, aniq ifodalashga o'rgatadi.

Yozuvchi, shoirming asarlarini badiiy jihatdan ta'sirli qiladi. Turmushning hamma sohasida, mehnat jarayonida, jonli suhbatda, yozma adabiyotimizda maqol va hikmatli iboralar juda ko'p ishlatiladi. Aytmoqchi bo'lgan fikrlar obrazli qilib ifodalaniladi. Ularda butun-butun Kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Apperson G.L. English Proverbs and Proverbial Phrases. –London, 1959.
2. Deeva I.M. English Proverbs and How to Use Them. –Л., 1970
3. English Proverbs Explained//Ridout R. Witting C. –London and Sidney: Pan Books, 1969.
4. Fox. A. Oral and literature culture in England.-Oxford, Oxford University press, 2002.
5. Johnson. A. Common English Sayings. –London, 1965.
6. Maqollar – Пословицы/ K. M. Karamatova, H. S.Karamatov. – Т.: Mehnat, 2002.
7. Merriam Webster's Encyclopedia of Literature, Webster. Inc.,1995
8. Proverbs, Maxims and Phrases of All Ages/R.Christy, –Lnd-NY.: 1998.
9. Ridout R. and Witting C. English Proverbs Explained. –Lnd.1969.
10. Smith, W.G. The Oxford Dictionary of English Proverbs. –Oxford: Oxford University Press 1970.
11. Sotvaldieva, H. M. (2021). Using proverbs as A lead-In activity in teaching english as A Foreign Language. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 159-163.
12. Sotvaldieva, H. M. (2020). ENGLISH PROVERBS AS A MEANS OF EXPRESSING PEOPLE'S WISDOM, SPIRIT AND NATIONAL MENTALITY. *Theoretical & Applied Science*, (2), 601-604.
13. Porubay, I. F., & Sotvaldieva, H. M. (2022). ANALYSIS OF IT-RELATED LEXICON AND INTERNET COMMUNICATION. *Thematics Journal of English Language Teaching*, 6(1).
14. Сотвалдиева, Х. М., & Машарипова, А. Т. (2022). ОБУЧЕНИЕ ЧЕРЕЗ ПОСЛОВИЦЫ. In НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 135-136).
15. Musinovna, S. H., & Tadjibaevn, M. A. (2021). STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. *Евразийский Союз Ученых*, (1-4 (82)), 22-25.
16. Sotvaldieva, K., & Toshmirzayeva, D. (2022). COGNITIVE STUDY OF "HAPPINESS" METAPHORS IN ENGLISH AND UZBEK IDIOMS. *Science and innovation*, 1(B6), 914-919.
17. Musinovna, S. H., & Mirxamidovna, M. G. (2022). Paremiological Units in Uzbek, English and Russian. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 18-21.
18. Сотвалдиева, Х. М., & Машарипова, А. Т. (2022). ОБУЧЕНИЕ ЧЕРЕЗ ПОСЛОВИЦЫ. In НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 135-136).

19. Musinovna, S. H. (2022). INZGLIZ TILIDA LUG'ATNI O'RGATISHNING TURLI USULLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYJ JURNALI, 2(10), 89-92.
20. Masharipova, A. T., & Sotvaldieva, H. M. (2021). To the question of relationship between language and culture on the material of russian and uzbek languages. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 407-410.
21. Sotvaldieva, H. M., & Masharipova, A. T. Expressive Means in Proverbs.
22. Mirxamidovna, M. G., & Musinovna, S. H. (2022). Communicative Characteristics of Proverbs and Languages. International Journal of Formal Education, 1(10), 11-17.
23. Musinovna, S. K. (2022). The concept of parema and paremiology. Miasto Przyszlosci, 24, 256-258.
24. Сотвалдиева, Х. М., & Дадамираева, Н. (2018). Синтаксическая структура английских пословиц. *Молодой ученый*, (44), 306-307.
25. Сотвалдиева, Х. М. (2016). Семантика английских пословиц. Ученый XXI века, 24.
26. Porubay, I. F., & Sotvaldieva, H. M. (2022). THE FUNCTIONS OF MEMES IN CONTEMPORARY INTERNET DISCOURSE. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYJ JURNALI, 2(11), 171-181.
27. Usmonova, U., & Sotvaldieva, K. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF RUSSIAN AND ENGLISH PAREMIA WITH A COMPONENT OF ZOONYMS. *Science and innovation*, 1(B8), 870-876.
28. Musinovna, S. H. (2022). COMPARATIVE STUDY OF MASS MEDIA VOCABULARY IN ENGLISH AND UZBEK. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 15, 110-112.
29. О структурно-семантических особенностях вопросительных предложений в разносистемных языках H Sotvaldiyeva, Ученый xxi века, 2017
30. ABOUT STRUCTURALLY-SEMANTIC FEATURES OF QUESTIONS IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES HM Sotvaldieva, УЧЕНЫЙ XXI BEKA, 2017
31. Musinovna, S. H. (2022). COMPARATIVE STUDY OF MASS MEDIA VOCABULARY IN ENGLISH AND UZBEK. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 15, 110-112.
32. Musinovna, S. H. (2023). LINGVISTIK HURMAT KATEGORIYASIDA NOVERBAL MULOQOT. *Journal of new century innovations*, 26(4), 127-129.
33. Kholmatova, E., & Sotvaldieva, K. (2023, April). THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF ADJECTIVE WORDS USED IN THE FIELD OF EDUCATION. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 4, pp. 21-23).
34. Musinovna, S. K., & Alisherovna, M. B. (2023). USING SOMATISMS IN PAREMIOLOGICAL UNITS.
35. Urmonova, M., & Mirzayeva, D. (2023). DETERMINATION OF THE CONCEPT OF "INTELLIGENCE AND UNINTELLIGENCE" IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 3(3), 91-96.
36. Musinovna, S. X., & Odiljonovna, T. D. (2023). INGLIZ TILIDA "BAXT" KONSEPTINING NAZARIY ASOSLARI. *Scientific Impulse*, 1(9), 1337-1339.
37. Musinovna, S. X. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI O'XSHATISH ETALONLARI. *Scientific Impulse*, 1(9), 1302-1304.
38. Musinovna, S. K., & Madina, Y. (2023). OKRA AND ITS CHARACTERISTICS. SO 'NGI ILMYJ TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(2), 78-79.
39. Сотвалдиева, Х. М., & Каденова, Ж. Т. (2023). ПАРЕМИИ-НЕОБХОДИМЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ ОБЩЕНИЯ ЛЮДЕЙ. *IQRO JURNALI*, 3(1), 80-82.
40. Ibragimovna, G. M., & Faxridinovna, Q. D. (2022). Comparative Analysis of the Uzbek and English Somatic Proverbs. *Miasto Przyszlosci*, 28, 319-323.
41. Musinovna, S. H. (2023). A Paradigmatic Expression of the Category of Respect in English-Speaking Countries and Uzbekistan. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(1), 76-77.